# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

**№6**

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2025**
IYUN



Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*
*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*

Google Scholar
OPEN ACCESS
ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY
Academic Resource Index ResearchBib
ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE
CYBERLENINKA
OpenAIRE
ROAD
INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL
BASE
Crossref
НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА eLIBRARY.RU




РЭУ.РФ РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

*Elektron nashr,*
*236 sahifa, iyun, 2025-yil.*

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Shakarov Zafar G'afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Botirali Roxataliyevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li,** Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo'raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz:
1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan ........ 12
**Isakov Janabay Yakypbayevich**

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash........ 18
**Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B**

Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market ........ 23
**Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova**

O‘zbekistonda eksportni sug‘urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo‘llari ........ 29
**D.E.Qarshiev**

Ta’lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o‘smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O‘zbekiston ........ 35
**Islomova Dilrabo Salomovna**

Oliy ta’lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli ........ 40
**Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o‘g‘li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o‘gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich**

Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития ........ 47
**Алиев Аброр Мураткулович**

The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration ........ 52
**Dilorom Mutalova**

Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o‘zbekiston qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli ........ 57
**Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o‘g’li**

Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar........ 62
**Jalilov Ahmadbek Ikromjon o‘g‘li**

Soliq to‘lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida ........ 66
**Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich**

The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing........ 73
**Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna**

Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties ........ 80
**Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna**

Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari ........ 85
**Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To’xtasinov Boburbek Yusufjon o’g’li**

Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo‘jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish...... ........ 89
**Fazilat Egamberganova Shuhratovna**

Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish ........ 93
**Ernaqulov Sunnatillo Nurali o‘g‘li**

Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari ........ 98
**Yembergenova Aynur Aydosbaevna**

Mahalliy budjetlar ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari ...... 104
**Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich**

Sirdaryo viloyatida investitsion faollikni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi ........ 110
**Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi**

Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari ............. 115
Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li

Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida .................. 118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich

Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari ............................... 125
Yaqubova Nodira Olim qizi

O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari .................................... 130
Nosirova Charos

Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni ............. 135
Asadullina Nailya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li

Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri ........................................................................... 142
Berdibekov A.

Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lim xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari ............ 148
Axmedova Barno Abdiyevna

Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi ........................................................................................................................................ 151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich

Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari ..................................................................... 156
Amonov Mehriddin Oromiddinovich

Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari ..................................................... 163
O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi

Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi ......................................................................... 169
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich

Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari .... 174
S.J. Yangiboev

Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari .......................... 181
Sharipov Narzullo G'ulomovich

Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish ...................................... 188
Bakayev Xurshid Maxmudovich

Применение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.................................................... 195
Маликов Шохрух Шокирович, Неъматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Ғанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович

Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ... 209
Meliqulov Abduhalil Norinovich

Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar ............................................................ 215
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli................................................. 219
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich

Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar ........................................................................................................................................ 223
Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi

Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi o'rni .................................................................... 230
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li



# DAVLAT BUDJETINING IJTIMOIY SOHANI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

**Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li**
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
"Davlat moliyasi va xalqaro moliya" mutaxassisligi magistranti

**ORCID: 0009-0000-0904-928X**

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat budjeti orqali ijtimoiy sohalar — ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va bandlikni rivojlantirishdagi asosiy yo'nalishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, budjet mablag'larining samarali boshqaruvi, natijadorlikka asoslangan yondashuvlar, xalqaro tajriba hamda O'zbekistonda bu borada olib borilayotgan islohotlar yoritiladi. Tadqiqot davomida dolzarb muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat budjeti, ijtimoiy soha, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, samaradorlik, natijadorlik, budjetlashtirish.

Abstract: This article analyzes the role of the state budget in the development of the social sector - including education, healthcare, social protection, and employment. It highlights the key areas of effective budget management, results-based budgeting approaches, international best practices, and ongoing reforms in Uzbekistan. The study identifies current challenges and offers recommendations for their resolution.

Keywords: state budget, social sector, efficiency, effectiveness, budgeting, healthcare, education, social protection.

Аннотация: В статье рассматривается роль государственного бюджета в развитии социальной сферы - образования, здравоохранения, социальной защиты и занятости. Анализируются направления эффективного управления бюджетными средствами, использование результативного подхода, международный опыт и реформы, реализуемые в Узбекистане. В ходе исследования выявлены актуальные проблемы и представлены рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: государственный бюджет, социальная сфера, эффективность, результативность, бюджетирование, здравоохранение, образование, социальная защита.

## KIRISH

Bugungi kunda davlat budjeti nafaqat mamlakat iqtisodiyotining asosiy moliyaviy asosi, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Har bir demokratik jamiyatda davlatning ijtimoiy sohalarga, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, bandlik va madaniyat kabi yo'nalishlarga ajratuvchi moliyaviy resurslari fuqarolarning hayot sifati va farovonligini belgilovchi asosiy omilga aylanmoqda.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ijtimoiy sohani moliyalashtirish bo'yicha tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat budjeti xarajatlarining yarmidan ortig'i aynan ijtimoiy yo'nalishlarga yo'naltirilayotgani bu sohaga bo'lgan e'tiborning oshib borayotganini ko'rsatadi. Bu esa ajratilayotgan mablag'larning nafaqat hajmini, balki ularning samaradorligi va natijadorligini ta'minlash masalasini kun tartibiga olib chiqmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy sohalarning moliyaviy barqarorligi bevosita davlat budjetining to'g'ri rejalashtirilishi va samarali boshqarilishiga bog'liq.

Ushbu tadqiqotda davlat budjetining ijtimoiy sohalarni rivojlantirishdagi amaliy o'rni, moliyaviy samaradorlikni oshirish yo'llari, xalqaro tajriba hamda O'zbekiston sharoitidagi dolzarb muammolar va takliflar atroflicha yoritiladi.

## MAVZUGA OYD ADABIYOTLAR SHARHI

Xususan, Musgrave R.A. ta'kidlaganidek, davlat moliyasi vositasida ijtimoiy tenglikka erishish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin bo'ladi [1].

I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida jamiyat taraqqiyotida inson salohiyatini yuksaltirish, ta'lim va ma'naviyatga ajratilayotgan davlat resurslarining o'rni chuqur yoritilgan. Asarda davlat siyosatining asosiy maqsadi ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy uyg'onishni ta'minlash ekani qayd etilgan [2].

Xolbo'tayev B.S. o'z ilmiy izlanishlarida davlat budjetining ijtimoiy yo'nalishlarga ajratilgan xarajatlari natijadorligini baholash va monitoring tizimlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, budjet samaradorligini aniqlashda nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatlarini ham e'tiborga olish zarur [3].

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot portali 2023–2024-yillar uchun e'lon qilgan rasmiy ma'lumotlarida ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan xarajatlarning umumiy budjetdagi ulushi, har bir sohaga ajratilgan aniq raqamlar ochiq e'lon qilingan. Bu ma'lumotlar tahlil uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda [4].

Davlat moliyasining nazariy asoslari bo'yicha Musgrave R.A. va Musgrave P.B. tomonidan yozilgan "Public Finance in Theory and Practice" asari muhim manba hisoblanadi. Mualliflar davlat xarajatlarining uch asosiy funksiyasi — taqsimlovchi, barqarorlashtiruvchi va resurslar taqsimotini muvozanatlovchi vazifalarini nazariy jihatdan asoslab beradi [5].

Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan chop etilgan "Public Expenditure Review" va boshqa hisobotlarda davlat xarajatlarini natijadorlik asosida rejalashtirish va indikatorlar tizimi orqali baholash zarurligi ta'kidlangan. Ayniqsa, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi sohalarda xarajatlarning ta'sirini o'lchash mexanizmlari ishlab chiqilgan [6].

OECDning "Performance Budgeting in OECD Countries" nomli hisobotida esa rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy soha xarajatlari samaradorligini oshirish uchun ochiqlik, fuqarolik ishtiroki va mustaqil audit tizimlarining roli alohida o'rganilgan. Bu tajriba O'zbekiston uchun amaliy jihatdan ahamiyatlidir [7].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada statistik tahlil, xalqaro taqqoslash, normativ-huquqiy hujjatlar sharhi va ekspert baholari asosida kompleks yondashuv qo'llanildi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida dinamik tahlil amalga oshirildi. Shuningdek, Musgrave, OECD, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) kabi nufuzli xalqaro manbalar asosida solishtirma tahlil o'tkazildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda ijtimoiy sohalarga yo'naltirilayotgan davlat budjeti xarajatlari hajmi yildan-yilga izchil oshib bormoqda. 2024-yilgi davlat budjetida umumiy xarajatlarning qariyb 57 foizi ijtimoiy yo'nalishlarga, ya'ni ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, bandlik va boshqa ijtimoiy infratuzilmalarga ajratilgan. Jumladan, ta'lim sohasiga 41,7 trillion so'm, sog'liqni saqlashga 23,4 trillion so'm, ijtimoiy himoya va pensiya tizimiga esa 12,8 trillion so'm ajratilgani budjet xarajatlarining ijtimoiy yo'naltirilganligini yaqqol namoyon etadi [4]. Shu bilan birga, bu mablag'larning samarali va maqsadli sarflanishini ta'minlash, ularning natijadorligini oshirish ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Mazkur tendensiya O'zbekistondagi ijtimoiy islohotlar kontekstida muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident qarorlarida ham davlat mablag'larining manzilliligi, shaffofligi va samaradorligini oshirish vazifasi bir necha bor urg'ulanmoqda. Ammo amaliyotda ayrim kamchiliklar saqlanib qolmoqda, masalan, ba'zi hududlarda budjet mablag'larining ajratilishi aholining real ehtiyojlariga to'liq mos kelmaydi, byurokratik to'siqlar mavjud va moliyaviy monitoring tizimi yetarlicha rivojlanmagan [8].

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlarning samaradorligi ularning faqat hajmiga emas, balki qanday natija berganiga bog'liq. Masalan, OECD mamlakatlarida keng qo'llanilayotgan "natijadorlikka asoslangan budjetlashtirish" (results-based budgeting) modeli orqali davlat xarajatlari har bir indikator (masalan, o'quvchilarning bilim darajasi, sog'lom tug'ilish ko'rsatkichi, aholi hayot davomiyligi va hokazo) asosida baholanadi [7]. Bu yondashuv budjet xarajatlarining nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham hisobga olinishini ta'minlaydi.

Jahon bankining "Public Expenditure Review" (PER) hisobotlarida ham shunga o'xshash yondashuvlar ilgari surilgan. Hisobotda davlatning har bir xarajati uchun o'lchovli indikatorlar va monitoring tizimlari ishlab chiqilishi, bunda fuqarolik jamiyati, OAV va mustaqil audit organlarining ishtiroki ta'minlanishi zarurligi qayd etilgan. Bu model O'zbekistonda ham joriy etilsa, budjet mablag'larining ijtimoiy samarasini oshirishda muhim omil bo'lishi mumkin [6].

Yana bir muhim jihat — ijtimoiy sohalardagi hududlararo nomutanosiblik. Masalan, ayrim viloyatlarda sog'liqni saqlash yoki ta'lim infratuzilmasi rivojlanmagan bo'lib, bu holat ajratilgan budjet mablag'larining teng

taqsimlanmaganidan dalolat beradi. Bunday vaziyatlarda moliyaviy manbalarni hududiy va tarmoq asosida rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, fuqarolarning budjet jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish, "fuqarolik budjeti" amaliyotini rivojlantirish orqali ijtimoiy xarajatlarning manzilliligini oshirish mumkin (1-rasm).




1-rasm: Ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan budjet xarajatlari ulushi

Yuqoridagi 1-rasmda 2020–2024-yillar oralig'ida O'zbekistonda ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan davlat budjeti xarajatlarining ulushi (foizda) yildan-yilga ortib borayotgani ko'rsatilgan. Bu tendensiya davlat tomonidan ijtimoiy sohalarga berilayotgan ustuvorlikni yaqqol tasdiqlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda davlat budjeti orqali ijtimoiy sohalarni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, so'nggi yillarda moliyalashtirish hajmining izchil oshib borishi ijobiy tendensiya sifatida e'tirof etilishi mumkin. 2024-yilda ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan mablag'lar umumiy budjet xarajatlarining 57 foizini tashkil etgani, davlat tomonidan ushbu yo'nalishga ustuvor ahamiyat qaratilayotganidan dalolat beradi. Biroq faqat miqdoriy o'sish emas, balki ushbu xarajatlarning natijadorligini oshirish, ularning maqsadli sarflanishi va ijtimoiy ta'sirini kuchaytirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

O'rganilgan xalqaro tajribalar (OECD, Jahon banki, IMF) asosida aniqlanishicha, natijadorlikka asoslangan budjetlashtirish tizimi, indikatorlar asosida baholash, fuqarolik ishtiroki va shaffoflikni kuchaytirish orqali ijtimoiy xarajatlar samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. O'zbekistonda bu kabi mexanizmlar bosqichma-bosqich joriy etilayotgan bo'lsa-da, ularning to'liq va kompleks faoliyat yuritishi uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Natijadorlikka asoslangan budjet tizimini takomillashtirish — ijtimoiy soha xarajatlarini baholash uchun aniq va o'lchovli indikatorlar ishlab chiqish, har bir dastur va loyiha natijasini monitoring qilish zarur.

Hududlararo nomutanosiblikni kamaytirish — ijtimoiy soha xarajatlarini hududlar bo'yicha teng taqsimlash, infratuzilmasi rivojlanmagan viloyatlarga ustuvorlik berish muhim.

Mustaqil audit va monitoring tizimlarini joriy etish — davlat xarajatlari ustidan fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari va mustaqil ekspertlar ishtirokidagi nazoratni kuchaytirish lozim.

Fuqarolik budjeti tamoyillarini kengaytirish — aholining ehtiyojlarini hisobga olgan holda budjetni shakllantirish va xarajatlarni rejalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish taklif etiladi.

Innovatsion moliyalashtirish vositalaridan foydalanish — ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik (PPP), ijtimoiy obligatsiyalar (social impact bonds) kabi zamonaviy moliyaviy mexanizmlarni tatbiq etish zarur.

Mutaxassislar salohiyatini oshirish — ijtimoiy soha bo'yicha budjet rejalashtirish, monitoring va tahlil ko'nik-

malariga ega kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlash zarur.

Ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi nafaqat davlat moliyaviy boshqaruvining samaradorligini oshiradi, balki aholining ijtimoiy barqarorligi va farovonligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Musgrave R.A., Musgrave P.B. Public Finance in Theory and Practice. – McGraw-Hill, 1989.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Xolbo'tayev B.S. Davlat byudjeti xarajatlarining natijadorligini baholash mexanizmlari. – T.: Iqtisodiyot, 2020.
4. Moliya.uz – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy portali, 2023–2024.
5. Musgrave R.A., Musgrave P.B. Public Finance in Theory and Practice. – McGraw-Hill, 1989.
6. World Bank. Public Expenditure Review Reports. – Washington D.C., 2022–2024.
7. OECD. Performance Budgeting in OECD Countries. – Paris: OECD Publishing, 2019.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–106-son qarori, 2022-yil 28-mart. "Davlat moliyaviy boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida".

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir Alibekov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**